QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.056

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQALI-HARAKATLI O‘YINLARNING SOG‘LOMLASHTIRUVCHI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Quvvatova Mohira Hikmatillayevna
Termiz davlat pedagogika insituti
“Maktabgacha ta’limda tarbiyani tashkil etish” kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD).
Orziqulova Bashorat Baxrom qizi.
Termiz davlat pedagogika instituti
Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 2-kurs magistri.
bashoratarzikulova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqali-harakatli o‘yinlardan foydalanish asosida sog‘lomlashtirish muhitini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Musiqa, ritm, o‘yin va jismoniy harakatning o‘zaro integratsiyasi bolaning harakat faolligi, asosiy motor ko‘nikmalari, koordinatsiyasi, muvozanati, ritmik qobiliyatlari hamda emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik vosita sifatida asoslangan. Mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili asosida musiqali-harakatli o‘yinlarning sog‘lomlashtirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, sog‘lomlashtirish muhiti, musiqali-harakatli o‘yin, musiqiy-ritmik harakat, jismoniy faollik, motor ko‘nikma, harakat koordinatsiyasi, ritm, sog‘lomlashtirish texnologiyasi, pedagogik integratsiya.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методические основы совершенствования оздоровительной среды дошкольных образовательных организаций посредством музыкально-подвижных игр. Интеграция музыки, ритма, игры и двигательной активности рассматривается как педагогическое средство, способствующее развитию двигательной активности, основных моторных навыков, координации, равновесия, чувства ритма, а также эмоционального и социального развития детей дошкольного возраста. **Ключевые слова:** дошкольное образование, оздоровительная среда, музыкально-подвижная игра, музыкально-ритмические

движения, двигательная активность, моторные навыки, координация движений, ритм, здоровьесберегающие технологии.

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations for improving the health-promoting environment in preschool educational organizations through music and movement games. The integration of music, rhythm, play and physical movement is considered a pedagogical means of supporting children's physical activity, fundamental motor skills, coordination, balance, rhythmic abilities, and emotional and social development. Based on a comparative analysis of national and international research, the health-promoting potential of music and movement games is substantiated.

Keywords: preschool education, health-promoting environment, music and movement games, musical-rhythmic movement, physical activity, motor skills, movement coordination, rhythm, health-promoting technology, pedagogical integration.

KIRISH (INTRODUCTION). Maktabgacha yosh davri insonning jismoniy, psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida alohida o‘rin egallaydi. Aynan mazkur davrda asosiy harakat ko‘nikmalari shakllanib, bolaning yurish, yugurish, sakrash, muvozanatni saqlash, fazoda mo‘ljal olish, qo‘l va oyoq harakatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish kabi qobiliyatlari takomillashib boradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonini tashkil etishda bolaning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda uning harakat faolligi va umumiy farovonligini ta’minlash ham muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimining mazmuni bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash tamoyiliga asoslanadi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashrida maktabgacha yoshdagi bolaning yaxlit rivojlanishi, rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish va turli rivojlanish sohalarini o‘zaro integratsiyalashga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Bunday yondashuv sog‘lomlashtirish faoliyatini ham ta’lim jarayonining boshqa yo‘nalishlaridan ajratilgan holda emas, balki bolaning kundalik faoliyatiga integratsiyalashgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqali-harakatli o‘yinlardan foydalanish asosida sog‘lomlashtirish muhitini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ushbu jarayonning metodik mexanizmini asoslashdan iborat. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, musiqali-harakatli o‘yinlarning sog‘lomlashtirish imkoniyatlarini aniqlash, mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlardagi yondashuvlarni qiyoslash, sog‘lomlashtirish muhitining asosiy tarkibiy komponentlarini belgilash hamda musiqali-harakatli o‘yinlarni kundalik pedagogik jarayonga integratsiya qilishning metodik shartlarini asoslash vazifalari belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS). Musiqa va harakatning o‘zaro uyg‘unligi masalasi pedagogika, musiqa ta’limi, jismoniy tarbiya va bolalar rivojlanishiga oid tadqiqotlarda turli nuqtai nazardan o‘rganilgan. Mazkur

tadqiqotlarning umumiy jihati musiqani faqat tinglash yoki estetik tarbiya vositasi sifatida emas, bolaning faol harakati bilan integratsiyalashadigan pedagogik resurs sifatida baholash bilan belgilanadi.

M. Muxitdinova maktabgacha ta’limda musiqiy-ritmik harakatlarning ahamiyatini o‘rganib, musiqa va ritmik faoliyat bolalarning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi [2]. Bu musiqiy-ritmik faoliyatni faqat musiqa mashg‘ulotining tarkibiy elementi sifatida emas, bolaning kompleks rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat sifatida qarash imkonini beradi. S.S. Ashurovaning tadqiqotida musiqiy ritm orqali bolalarning harakat koordinatsiyasini rivojlantirish masalasi maxsus o‘rganilgan. Muallif ritm va harakat o‘rtasidagi psixofiziologik aloqalar, sensomotor integratsiya, qo‘pol va nozik motorika, ko‘z–qo‘l rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratadi [3, 273–283-b.].

Mahalliy tadqiqotlarning mazkur natijalari maktabgacha ta’limda musiqiy-ritmik harakatlarni sog‘lomlashtirish mazmuniga integratsiyalash uchun muayyan ilmiy-metodik asos mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, musiqali-harakatli faoliyatning motor rivojlanishga ta’siri xalqaro tadqiqotlarda eksperimental usullar yordamida ham tekshirilgan.

E. Zachopoulou, A. Tsapakidou va V. Derri tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot mazkur masalada alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda 4–6 yoshdagi 90 nafar bola qatnashgan. Ulardan 50 nafari musiqa va harakat dasturi amalga oshirilgan tajriba guruhiga, qolganlari esa jismoniy tarbiya dasturini davom ettirgan nazorat guruhiga ajratilgan. Ikki oy davom etgan tajriba yakunida musiqa va harakat dasturida qatnashgan bolalarning sakrash va dinamik muvozanat ko‘rsatkichlarida sezilarli yaxshilanish aniqlangan [4, 231–242-b.]. Ushbu natija musiqiy-harakatli faoliyatni asosiy motor ko‘nikmalarini rivojlantirish vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqish uchun eksperimental dalil beradi.

M. Laure va K. Habe tadqiqotida esa 3–6 yoshdagi 59 nafar maktabgacha yoshdagi bola ishtirok etgan. Bolalar ikki tajriba va bitta nazorat guruhiga ajratilgan. Tajriba guruhlarida to‘rt oy davomida haftasiga uch marta 15–20 daqiqadan musiqa va harakat faoliyati tashkil etilgan. Natijalarda tajriba guruhlaridagi bolalarning ritmik qobiliyatlari rivojlanganligi, ayniqsa jonli pianino musiqasi bilan amalga oshirilgan faoliyatda ta’sir kuchliroq namoyon bo‘lganligi aniqlangan [5, 263–274-b.]. Bu esa musiqaning mavjudligi bilangina emas, uning ijro shakli va bolaning musiqiy-harakatli faoliyat bilan qanday munosabatga kirishishi ham pedagogik samaraga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Musiqa va ritmik harakatlarning ta’siri faqat motor rivojlanish bilan cheklanmasligini K.E. Williams va hammualliflarning tadqiqotlari ham ko‘rsatadi. Rhythm and Movement for Self-Regulation – RAMSR dasturi doirasidagi randomizatsiyalangan tadqiqotda Avstraliyaning sakkizta maktabgacha ta’lim muassasasidagi 213 nafar bola qatnashgan. Tajriba guruhiga sakkiz hafta davomida 16–20 ta musiqa va ritmik harakat mashg‘ulotlari taklif qilingan. Tadqiqotda o‘zini o‘zi boshqarish, ijro

funksiyalari va maktab ta’limiga tayyorgarlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar o‘rganilgan [7]. Ushbu tajribaning muhim jihati shundaki, dastur maxsus musiqa terapevtlari emas, umumiy tayyorgarlikka ega maktabgacha ta’lim pedagoglari tomonidan amalga oshirilgan.

2026-yilda e’lon qilingan ushbu dasturga oid keyingi tadqiqot natijalari ritm va harakat faoliyatining ijtimoiy-xulqiy rivojlanish bilan ham aloqadorligini ko‘rsatgan. 213 bola ishtirok etgan randomizatsiyalangan tadqiqotda prosotsial ko‘nikmalarning yaxshilanishi hamda ayrim tashqi va ichki xulqiy muammolarning kamayishi bo‘yicha statistik ahamiyatli ta’sirlar aniqlangan [8]. Bu natijalar musiqali-harakatli faoliyatni sog‘lomlashtirish muhitining faqat jismoniy emas, emotsional va ijtimoiy komponentlari bilan ham bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda mavjud natijalarni ortiqcha umumlashtirishdan saqlanish lozim. 2026-yilgi tizimli sharh va meta-tahlil strukturali hamda yo‘naltirilgan harakat va san’at faoliyatlarining ayrim ijro funksiyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini aniqlagan bo‘lsa-da, mualliflar natijalarni barcha harakat yoki san’at faoliyatiga bir xil tatbiq qilish mumkin emasligini qayd etadilar. Pedagogik faoliyatning tuzilishi, bolaning oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifalar va pedagog rahbarligi natijaga ta’sir qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan.

NATIJALAR (RESULTS). Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish, ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish hamda mazmuniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlilda maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirokidagi musiqa va harakat dasturlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar, maktabgacha ta’limning amaldagi dasturiy-metodik asoslari hamda musiqiy-ritmik faoliyat bo‘yicha mahalliy tadqiqotlar o‘rganildi.

Musiqali-harakatli o‘yinlarning sog‘lomlashtirish imkoniyatlarini aniqlashda uchta asosiy mezonga e’tibor qaratildi. Birinchisi – bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ta’siri; ikkinchisi – emotsional va psixologik faollikni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati; uchinchisi – guruhli faoliyat va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish xususiyatidir. Musiqali-harakatli o‘yinlarni musiqa yoki ritmik jo‘rlik ostida muayyan o‘yin qoidalariga asoslangan holda bajariladigan jismoniy va obrazli harakatlar majmui sifatida tavsiflash mumkin. Ular an’anaviy harakatli o‘yinlardan harakatning musiqaning ritmi, tempi, dinamikasi va xarakteriga muvofiqlashtirilishi bilan farqlanadi.

Bunday faoliyatda musiqa fon vazifasini bajarib qolmasligi muhim. U bolaning harakatini tashkil etuvchi signal va boshqaruvchi omilga aylanishi kerak. Masalan, musiqa boshlanishi harakatning boshlanishi, to‘xtashi esa harakatning yakunlanishi uchun signal bo‘lishi mumkin. Musiqa tezlashganda harakat sur’atining o‘zgarishi, musiqiy xarakter almashganda yangi harakatga o‘tilishi boladan eshitish va harakat reaksiyalarini o‘zaro muvofiqlashtirishni talab etadi.

Sog‘lomlashtirish muhitining birinchi tarkibiy yo‘nalishi bolaning harakatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondirish bilan bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bola uzoq vaqt davomida statik holatda qolishga moslashmagan. Shu sababli kun tartibining turli qismlariga qisqa, qiziqarli va mazmunli harakatli faoliyatni kiritish muhimdir. Musiqali-harakatli o‘yinlarda yurish, yugurish, sakrash, egilish, cho‘zilish, burilish, qo‘l va oyoqlarning birgalikdagi harakati, yo‘nalishni almashtirish va muvozanat saqlash kabi tabiiy harakatlardan foydalanish mumkin. Bunda asosiy maqsad bolani imkon qadar ko‘proq charchatish emas, balki yoshiga mos optimal harakat faolligini ta’minlashdan iborat. Sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatda yuqori intensivlikdagi harakatlardan so‘ng sokin yurish, cho‘zilish yoki nafasni me’yorlashtiruvchi harakatlar berilishi maqsadga muvofiq. Zachopoulou va hammualliflar tadqiqotidagi dinamik muvozanat va sakrash ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi musiqa bilan muvofiqlashtirilgan harakatning motor rivojlanish uchun amaliy imkoniyatlarini tasdiqlaydi [4, 231–242-b.].

Tadqiqot natijasida musiqali-harakatli o‘yinlardan foydalanishga faqat musiqiy yoki jismoniy mashg‘ulot shakli sifatida emas, maktabgacha ta’lim tashkilotining sog‘lomlashtirish muhitini shakllantiruvchi integrativ pedagogik vosita sifatida yondashish asoslandi. Sog‘lomlashtirish muhitining mazmuni jismoniy-harakatli, musiqiy-ritmik, emotsional-psixologik va ijtimoiy-kommunikativ komponentlarning o‘zaro birligi sifatida aniqlashtirildi. Bunda sog‘lomlashtirish natijasi faqat bolaning jismoniy faolligi bilan emas, uning ritmik muvofiqlashuvi, ijobiy emotsional ishtiroki va guruhli hamkorligi bilan ham bog‘liq holda baholanishi asoslandi.

Musiqali-harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik mexanizmi – pedagogik kuzatish, maqsadni belgilash, o‘yinni tanlash, individual moslashtirish, faoliyatni amalga oshirish, monitoring va pedagogik korreksiya bosqichlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida taklif etildi. Sog‘lomlashtirish samaradorligini ta’minlashda musiqa tempi va harakat intensivligining muvofiqligi, murakkablikning bosqichma-bosqich oshirilishi, faol va tiklovchi harakatlarning almashinuvi hamda pedagoglararo hamkorlik muhim tashkiliy-pedagogik shartlar sifatida belgilandi.

XULOSA (CONCLUSION). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lomlashtirish muhitini takomillashtirish bolaning jismoniy faolligini oshirish bilangina chegaralanmaydigan kompleks pedagogik vazifadir. Bunday muhit bolaning harakatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondirishi, unda ijobiy emotsional holatni shakllantirishi, tengdoshlari bilan hamkorligini qo‘llab-quvvatlashi hamda harakat va psixologik zo‘riqish o‘rtasida maqbul muvozanat yaratishi lozim.

Musiqali-harakatli o‘yinlar mazkur vazifalarni kompleks amalga oshirish imkonini beradigan integrativ pedagogik vositalardan biridir. Ularda musiqa, ritm, jismoniy harakat, obraz va o‘yin qoidalarining birlashishi bolaning faoliyatga tabiiy ravishda jalb qilinishiga sharoit yaratadi. Tahlil qilingan xorijiy eksperimental tadqiqotlar musiqa va harakat

dasturlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda dinamik muvozanat, sakrash, ritmik qobiliyatlar va o‘zini o‘zi boshqarishning ayrim ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatmoqda [4; 5; 7]. Zamonaviy tizimli sharhlar ham musiqa va harakat pedagogikasining jismoniy, kognitiv va emotsional rivojlanish bilan bog‘liqligini qayd etadi [6]. Biroq ushbu natijalarni barcha turdagi musiqali-harakatli faoliyatga avtomatik ravishda tatbiq etish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Mashg‘ulotlarning mazmuni, davomiyligi, pedagogik tuzilishi, bolalarning yoshi va pedagogning rahbarlik usuli natijaga ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022.

2. Muxitdinova M. Maktabgacha ta’limda musiqiy-ritmik harakatlar ahamiyati. – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2024.

3. Ashurova S.S. Musiqiy ritm orqali bolalarda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish yondashuvlari // Science and Education. – 2025. – Vol. 6. – № 11. – B. 573–583.

4. Zachopoulou E., Tsapakidou A., Derri V. The effects of a developmentally appropriate music and movement program on motor performance // Early Childhood Research Quarterly. – 2004. – Vol. 19. – № 4. – P. 631–642. DOI: 10.1016/j.ecresq.2004.10.005.

5. Laure M., Habe K. Stimulating the Development of Rhythmic Abilities in Preschool Children in Montessori Kindergartens with Music-Movement Activities: A Quasi-Experimental Study // Early Childhood Education Journal. – 2024. – Vol. 52. – P. 563–574. DOI: 10.1007/s10643-023-01459-x.

6. del Barrio L., Arús M.E. Music and movement pedagogy in basic education: a systematic review // Frontiers in Education. – 2024. – Vol. 9. – Article 1403745. DOI: 10.3389/feduc.2024.1403745.

7. Williams K.E. et al. Rhythm and movement delivered by teachers supports self-regulation skills of preschool-aged children in disadvantaged communities: A clustered RCT // Early Childhood Research Quarterly. – 2023.

8. Vega-Fernandez G., Valenzuela-Fuenzalida J.J., Jeria-Pizarro Y. et al. Early Childhood Movement- and Arts-Based Experiences and Executive Functions: A Systematic Review and Meta-Analysis // Children. – 2026. – Vol. 13. – № 9. – Article 1134.